



№ 2/2026

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ADPI
Ilmiy xabarnomasi

ADPI
Ilmiy xabarnomasi

АГПИ
Научный вестник



ANDIJON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI

ADPI Ilmiy xabarnomasi

№ 2 2026 **aprel**

Jurnal 2023-yildan chop etilmoqda

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2022-yil 25-oktyabrda
№ 045013 raqam bilan ro'yxatga olingan
ISSN 2181-4309

O'zbekiston Respublikasi

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2024-yil 8-maydagi №354-
sonli qarori bilan **Pedagogika fanlari** bo'yicha Oliy
attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy
natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga
kiritilgan.

Xalqaro miqyosda faoliyat yurituvchi yirik
ilmiy ma'lumotlar **CrossRef** bazasida
indeksialanadi.

★ Ilmiy maqolalar O'zbek, Rus, Ingliz tillarida
<https://eduservis.uz> sayti orqali qabul qilinadi.

Murojaat uchun:

Telegram: ADPIilmiyxabarnoma_bot

Electron manzil: eduservis@gmail.com

2/2

BOSH MUHARRIR:

B.M. Rasulov- tarix fanlari doktori (DSc), professor

Mas'ul muharrir:

B.A. Sirojiddinov- biologiya fanlari doktori (DSc), professor

TAHRIR KENGASHI

S.Z. Zaynobiddinov- O'zRFA akademigi

I.R. Asqarov- kimyo fanlari doktori, professor

Sh.X. Yo'lchiyev- fizika-matematika fanlari doktori, (DSc), professor

A.E. Zaynobiddinov- biologiya fanlari doktori, professor

B.X. Amanov- biologiya fanlari doktori (DSc), professor

A.A. Egamberdiyev- falsafa fanlari doktori (DSc), professor

M.V. Xalimova- psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Sh.J. Yusupova - pedagogika fanlari doktori, professor

Z.E. Azimova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

M.B. Artiqova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

V.A. Qodirov- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

N.J. Abdullayeva- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

M.A. Tojiboyeva - filologiya fanlari doktori, professor

Sh.A. Xaitov- tarix fanlari doktori (DSc), professor

A.G. G'aniyev- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

M.K. Pozilov -biologiya fanlari doktori (DSc), professor

T.T. Kaziyeva- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

U.A. Usmanova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

D.T. Samatov- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

A.Xakimov- pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

M.T.Parpiyev- falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

A.A. Zapparov- texnika fanlari nomzodi, professor

U.A. Saliyev- tarix fanlari nomzodi, professor

M.I. Israil- filologiya fanlari doktori, professor

L.A. Muxammadjonova- falsafa fanlari nomzodi, professor

Sh.A. Xasanov - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

X.T. Komilova pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

M.Sh. Alimova - siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

Q. Ibaybullayev- falsafa fanlari nomzodi, dotsent

D.T. Samatov- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

D'.M. Muxtarov- falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

S.N. Yusupova- tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

B.M. Do'monov- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

E.A. Tajimirzayev- tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

K.S. Karimov - tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

A.A. Yuldashyev- biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

M.J. Abduraxmonova - biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

M.M. Muydinova- fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

J.B. Qoraboyev- filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

N.T. Mo'yidinov- kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

D.A. Sobirova- filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

E.B. Abdullayev- falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

G'.Sh. G'ulomov- biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

L.S. Yunusov - biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

N.S. Yaqubov- tarix fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD), dotsent

M.I. O'rinboyev- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

U.Sh. Uktamov - geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

M.G'. Ergasheva - tarix fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD)

Muharrirlar:

O. Karimov,

U. Malikova,

B. Mashrabova.

MUNDARIJA

PEDAGOGIKA

Artikova M.B., Turaboyeva M.R. Ta'lim xoldingi dasturiy ta'minoti: bilimni targ'ib qilish va ta'lim xizmatlari taklifi sifatida	4
Abdullayeva N.J., Madmarova G.Q. Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy-pedagogik ijodkorlikni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	9
Hasanov Sh.A. Analitik tafakkur – talabalarda fikrlash dinamikasi va intellektual rivojlanishning asosiy kognitiv omili sifatida	15
Shabdullayeva L.O. Malakaviy amaliyot jarayonida talabalarda raqamli ta'lim muhitida mustaqil ta'limni qo'llay olish mexanizmlari	20
Agzamova N.O. Xorijiy tillarni o'qitishda pedagogning qarashlari va o'qitish metodlariga bu qarashlarning ta'siri	30
Matmusayev T.M. Avlodlar nazariyasi va yoshlar ijtimoiylashuvida qadriyatlar uzviyligi	35
Axmedova N.D., Urinbayeva B.Z. Bo'lajak tarbiyachilarning bolalarda hissiy-ma'naviy sifatlarni rivojlantirish metodikasi	42
Alimov J.A., Shermuhammedov M. Zamonaviy sharoitda stol tennis orqali talabalarning jismoniy faolligini oshirish	47
Axunov U.R. Kinestetik kompetensiyalarni rivojlantirish bosqichlari va ularni ta'lim amaliyotida qo'llash	51
Shabdullayeva L.O. Talabalarda mustaqil ta'limni shakllanganlik mezonlari ularning baholash usullari va vositalari	55
Karimova M.M. Ta'lim-tarbiyada qo'shiqning o'rni	62
Azimova Z.E., Otabayeva Z.G'. Klasterli yondashuv asosida talabalar jamoasida hamkorlik madaniyatini rivojlantirishning nazariy asoslari	67
Hasanov Sh.A. Badiiy asar tahlili kompetensiyasi - filolog talabalarda kasbiy kompetensiyalarni takomillashtirishning didaktik drayveri sifatida	71
Ismonov X.B., Azimjonova U.Z. Muhandislik grafikasi jarayonlarida aksonometrik proyeksiyalar va ularning ahamiyati	78
Maxmudov A.O. Chizmachilik mashg'ulotlarida interfaol va grafik metodlar orqali o'quvchilarning ijodiy va fozoviy tafakkurini rivojlantirish	84
Abduraxmonova D.Sh. Bo'lajak "tarbiya" fani o'qituvchilarini individual yondashuv asosida o'quvchilarni baholash va rag'batlantirish faoliyatiga tayyorlashning pedagogik, psixologik va amaliy asoslari	89
Bekmuratov N.A., Odiljonov U.U. Tasviriy san'at o'qituvchisining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslari	93
Madaminova G.G. Umumta'lim maktablarida fan to'garaklarini tashkil etishning nazariy-huquqiy asoslari va amaliy muammolari	100
Mashrabova B.N. Irony and hyperbole in the dialogue of abdujjon: a stylistic analysis of cinematic language	106
Nishonov N.A. O'yin faoliyatining psixosotsial va pedagogik aspektlari	111
Ubaydullayev S.Q., Tursunov F.E., Qo'ychiyeva M.L. Texnologiya fanlarni o'qitishda axborot texnologiyalarini ahamiyati	115
Uraimov S.R., Xakimjonov M.X. Workout metodikasining xorijiy mamlakatlardagi qo'llanilishi va uning o'zbekiston sharoitida rivojlantirish	120
Yoqubjonov N.G'. Futbol orqali talabalarda jamoaviylik va yetakchilik sifatlarini shakllantirish	126
Jo'rayeva D.I. Musiqa madaniyati darslarida o'zbek xalq kuy-qo'shiqlaridan foydalanish metodikasi	130

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR

Rasulov B.M., Abduraxmanov A.A. Yangi O'zbekistonda sud huquq tizmidagi islohatlar	135
Raximova Z.X. Ijtimoiy tarmoqlar sharoitida pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirish zamonaviy ijtimoiy ehtiyoj sifatida	142
Uzaqova N.M. Oliy ta'limda inklyuziv ta'limning rivojlanishi: yutuq va kamchiliklari	149
Rahmatullayeva G.M., Dripova A.M. Talabalarda milliy madaniyatga nisbatan milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini shakllantirish tajribasi va samaradorligini aniqlash	153
Mutallibjonov U.I. Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishda huquqiy tarbiyaning o'rni	157

ANIQ VA TABIIY FANLAR

Asqarov I.R., Isayev Yu.T., Rustamov S.A., Mirzaabdullayev B.A. Xalq tabobati usullaridan foydalanilgan holda talabalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish mavzusini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish	162
Абдурахимов А., Нишанов Х., Эсонбоева Ш. Основные характеристики средней множественности заряженных частиц в физике высоких энергий	169
Umarov A.V. Pedagogika ta'lim yo'nalishi talabalarida mediakompetentlik tushunchasining nazariy-metodologik asoslari	173
Гуломов Г.Ш., Маткаримова М.Х. Цитогенетическое изучение мутагенной активности в соматических клетках экспериментальных животных после воздействия переменного магнитного поля с модуляцией амплитуды средней частоты	179
Гуломов Г.Ш., Маткаримова М.Х. Исследование количества и состава иммунокомпетентных клеток после воздействия переменного магнитного поля с модуляцией амплитуды средней частоты	183
Mamadaliyev B.K. Sun'iy intellektga asoslangan ta'limiy dasturlar orqali bo'lajak o'qituvchilarning kreativ tafakkurini rivojlantirish	187
Jamoldinova D.A. Mantiqiy masalalar ta'limida milliy va xalqaro yondashuvlar uyg'unligi	192
Abfazova K.S. Uzluksiz ta'lim tizimida matematika fanini modulli o'qitish metodikasi	196

BO'LAJAK TARBİYACHILARNING BOLALARDA HISSIY-MA'NAVIY SIFATLARNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Axmedova Nigoraxon Dadaxonovna, Urinbayeva Barchinoy Zafarjonovna

Andijon davlat tibbiyot instituti

Annotatsiya.

Simulyatsiya usullarini muvaffaqiyatli qo'llashda bo'lajak tarbiyachilarning bu texnikalarga tayyorlanishi juda muhim ahamiyatga ega. Bu tarbiyachilar bolalarga Simulyatsiya usullarining samaradorligini qanday va qaysi sharoitlarda qo'llashni chuqur tushunishlari zarur. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, pedagogik mahorat nafaqat texnik bilimlarni o'zlashtirishga, balki amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishga ham xizmat qiladi. Ushbu maqolada bo'lajak tarbiyachilarning bolalarda hissiy-ma'naviy sifatlarni rivojlantirishda Simulyatsiya usullarini qo'llashga tayyorligini ta'minlovchi metodik ta'minot haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar:

innovatsiya, nazariy-metodologik, motivlashtirish, boshqaruv strategiyasi, kommunikatsiyalar, loyiha.

Аннотация.

Успешное применение методов симуляции во многом зависит от подготовки будущих воспитателей к использованию этих технологий. Воспитатели должны глубоко понимать, каким образом и в каких условиях можно эффективно применять методы симуляции в работе с детьми. Исследования показывают, что педагогическое мастерство заключается не только в усвоении теоретических знаний, но и в формировании практических навыков их применения. В данной статье представлены сведения о методическом обеспечении, направленном на подготовку будущих воспитателей к использованию методов симуляции в процессе развития у детей эмоционально-нравственных качеств.

Ключевые слова:

инновация, теоретико-методологический, мотивация, стратегия управления, коммуникации, проект.

Abstract.

In order to successfully use simulation methods, it is very important for future educators to prepare for these techniques. These educators need to have a deep understanding of how and under what conditions to use Simulation methods effectively with children. Research shows that pedagogical skills serve not only to master technical knowledge, but also to form skills for applying them in practice. This article provides information on the methodological support that ensures the readiness of future educators to use Simulation methods in developing emotional and spiritual qualities in children.

Keywords:

innovation, theoretical and methodological, motivation, management strategy, communications, project.

Simulyatsiya usullarining samarali ishlashi uchun tarbiyachilar bu texnologiyalarni amaliyotda to'g'ri qo'llash qobiliyatiga ega bo'lishlari zarur. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tarbiyachilarning malakasi va tayyorligi bu usullarning samaradorligini belgilovchi asosiy omillardandir. Ushbu jarayonda tarbiyachilar amaliy mashg'ulotlar va Simulyatsiya usullarini sinab ko'rish orqali tarbiyalanuvchilarni turli vaziyatlarda qanday boshqarish kerakligini

o'rganadilar. Masalan, tarbiyachilar turli vaziyatlarda bolalarning o'z his-tuyg'ularini boshqarish, ijtimoiy muloqotni rivojlantirish va empatiya shakllantirishda qanday yo'l tutish kerakligini tushunib oladilar.

Tarbiyachilarning amaliy mashg'ulotlar va Simulyatsiya usullarini sinab ko'rish jarayonida bolalarning hissiy va ijtimoiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash ko'nikmalarini shakllantirish juda muhim. Ushbu jarayonda tarbiyachilar turli vaziyatlarda bolalarni boshqarishni o'rganadilar, bu esa bolalarning o'z his-tuyg'ularini boshqarishga va ijtimoiy muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tarbiyachilar bolalarga muayyan hissiy holatlarda qanday munosabat bildirish va qiyin vaziyatlarni qanday boshqarish kerakligini o'rgatishda Simulyatsion usullardan samarali foydalanishlari bolalarda empatiya, muloqot va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Simulyatsion usullar tarbiyalanuvchilarga turli rollarda bo'lish imkonini beradi, bu esa ularga o'z hissiyotlarini nazorat qilish va boshqa shaxslarning his-tuyg'ularini tushunishni o'rgatadi. Tarbiyachilar bunday usullarni o'z pedagogik amaliyotlariga kiritganda, bolalarning hissiy va ijtimoiy rivojlanishiga katta ta'sir o'tkazishlari mumkin. Simulyatsiya orqali ularda o'zaro hamkorlik, empatiya va hissiy intellektni oshirish ko'nikmalari shakllanadi, bu esa nafaqat ta'lim jarayonida, balki hayotiy vaziyatlarda ham qo'llaniladi [1].

Simulyatsion texnologiyalarni muvaffaqiyatli qo'llash uchun tarbiyachilar maxsus tayyorgarlikdan, amaliyot va treninglar, o'tishlari kerak, bunda ularga Simulyatsion o'yinlar va texnologiyalarni ta'lim jarayoniga qanday integratsiya qilish o'rgatiladi. Bunday treninglar tarbiyachilarga bolalarning shaxsiy rivojlanishini samarali tarzda qo'llab-quvvatlash va maqsadli natijalarga erishish imkonini beradi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tarbiyachilar maxsus tayyorgarlikdan o'tganda, ular Simulyatsiya texnologiyalarining bolalarning hissiy-ma'naviy va shaxsiy rivojlanishiga qanday ta'sir qilishini yaxshi tushunib oladilar. Tarbiyachilar uchun Simulyatsion ta'lim bo'yicha tashkil etilgan trening mashg'ulotlar orqali o'rgangan tajribasi ularning bolalarga empatiya, muloqot, va ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirishda ko'maklashish qobiliyatlarini oshiradi. Tayyorgarlik jarayonida tarbiyachilar:

Bolalarning muammolarni hal qilish va hissiy tajribalarni boshqarish qobiliyatlarini rivojlantirish uchun Simulyatsion o'yinlar va dasturlardan foydalanishni o'rganadilar.

Simulyatsion texnologiyalarni amaliyotga joriy qilishda, bolalarni turli hayotiy vaziyatlarga tayyorlashda qanday samarali usullarni qo'llash kerakligini tushunadilar. Bu jarayon bolalarning shaxsiy rivojlanishi, ijtimoiy va hissiy qobiliyatlarini yaxshilashga yordam beradi, shu bilan birga, ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi [2].

Simulyatsiya texnologiyalarini o'rgatish uchun quyidagi pedagogik usullar asosida mashg'ulotlarni ishlab chiqilishini taklif qilamiz. Ushbu usullar bolalarning muammolarni hal qilish va hissiy tajribalarni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Bosqichma-bosqich ko'rsatmalar (FIA - Faoliyatning indikativ asosi)

Tayyorlov bosqichida tarbiyachilar bolalarga Simulyatsiya texnologiyasini qanday qo'llash kerakligini tushuntiradilar. Bu jarayonda maqsad Simulyatsiyaning amaliyotda qanday ishlashini tushuntirish va undan qanday foydalanishni bosqichma-bosqich ko'rsatishdir.

Tarbiyachi bolalarga harakatlar ketma-ketligini aniq ko'rsatib, dastlabki yondashuvni shakllantiradi.

Amaliy mashg'ulotlar jarayonida bolalar muayyan vaziyatlarni hal qilishga oid Simulyatsiyalarni bajara boshlaydilar. Tarbiyachilarning rahbarligida turli rollarni bajarish orqali bolalar amaliyotda qanday yondashuvlar ishlatilishini ko'radilar. Masalan, ular o'z his-tuyg'ularini boshqarish va muammolarni hal qilishda qanday choralar qo'llash kerakligini o'rganadilar.

Ko'rsatma va amaliy mashg'ulotlar

Tarbiyachilar Simulyatsiya o'yinlari orqali bolalarga amaliy mashqlarni o'rgatadilar. Masalan, muammolarni hal qilish vaziyatlarida bolalarning turli rollarini sinab ko'rish uchun o'yin texnologiyalaridan foydalaniladi [3]. Tarbiyachi o'yin jarayonida har bir bolaga ko'rsatma beradi va ularning harakatlarini kuzatadi.

Bolalarga o'yin jarayonida faol ishtirok qilish imkoniyati yaratiladi. Bu jarayonda ular muammolarni hal qilishda ijodkorlik ko'rsatishi va hissiy reaksiyalarini nazorat qilishi lozim. O'yin yakunida har bir bola o'z tajribasini baholaydi va xulosalar chiqaradi.

Refleksiya va tahlil

O'yin yoki Simulyatsiya yakunlangach, bolalar qaysi vaziyatlarda qanday qiyinchiliklarga duch kelganliklari va qanday yechimlar topganliklarini muhokama qiladilar. Bu sessiyada tarbiyachilar bolalarning hissiy tajribalarini boshqarish va muammolarni hal qilishdagi qobiliyatlarini baholaydilar [4].

Muammolarni hal qilish tahlili: Har bir muammoni hal qilish jarayonida qaysi qadamlar muvaffaqiyatli bo'lganini va qaysi joylarda xatolar yuz berganini tahlil qilish. Bu jarayon bolalarning kelajakdagi vaziyatlarda qanday yaxshiroq qaror qabul qilishlari mumkinligini o'rganishlariga yordam beradi.

Rolli o'yin va ijtimoiy tajriba

Simulyatsion usullarni amaliy qo'llashda bolalarga turli rollarni o'ynatish orqali real hayotiy vaziyatlarni o'rganish imkonini berish. Masalan, bolalar o'rtasida ijtimoiy muammolarni hal qilishda turli rollarda bo'lish orqali empatiya va hissiy boshqaruvni o'rganadilar.

Bolalar o'zlarining ijtimoiy va hissiy reaksiyalarini boshqarish va o'zlarini boshqalarning o'rniga qo'yib ko'rish orqali muammolarni hal qilishda qanday yo'l tutishni amaliyotda sinab ko'rishadi va ijtimoiy tajribalarga ega bo'ladilar [5].

Simulyatsion ta'lim usullari, ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarni kiritishda samarali vosita hisoblanadi. **Pedagogik usullar va texnikalar** yordamida tarbiyachilarni Simulyatsion ta'limga tayyorlash, bolalarning hissiy-ma'naviy sifatlarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega.

Ushbu maqsadda bo'lajak tarbiyachilarda Simulyatsion ta'lim orqali bolalarni hissiy-ma'naviy tayyorlashning metodik ta'minotini takomillashtirish bosqichlari ishlab chiqildi.

1. Tahliliy bosqich: Muammoning holatini o'rganish va Simulyatsion ta'limning hozirgi holatini, foydalanilayotgan metodlarni va tarbiyachilarning tayyorgarlik darajasini baholash. Bolalarda hissiy-ma'naviy sifatlarini shakllantirishda qo'llanilayotgan usullarni o'rganish. Tarbiyachilar bilan so'rovnoma va suhbatlar o'tkazish. Simulyatsion ta'lim usullarining dolzarbligini tahlil qilish. Dastlabki muammolarni aniqlash va rivojlantirish uchun asos yaratish.

2. Loyihalash bosqichi: Metodik ta'minotni ishlab chiqish va Simulyatsion ta'limning aniq maqsadlari, vazifalari va usullarini belgilash. Simulyatsion usullarning ta'lim jarayoniga integratsiyasi uchun metodik qo'llanma yaratish. Turli ta'lim texnologiyalariga asoslangan o'yinlar, rolli vaziyatlar va mashqlar ishlab chiqish. Ota-onalar va ta'lim muassasalari uchun tavsiyalarni shakllantirish. Natijada Simulyatsion ta'lim jarayonida qo'llaniladigan metodik materiallar majmuasini yaratish.

3. Amalga oshirish bosqichi: Simulyatsion metodlarni joriy etish. Bo'lajak tarbiyachilarni Simulyatsion metodlarni qo'llashga tayyorlash maqsadidan kelib chiqib maxsus trening va seminarlar tashkil qilish. Tarbiyachilar uchun amaliy mashg'ulotlar o'tkazish. Bolalar bilan ishlashda yangi metodlarni sinovdan o'tkazish natijasida tarbiyachilar Simulyatsion metodlarni mustaqil ravishda qo'llay olishlari.

4. Baholash bosqichi: Samadorlikni tahlil qilish maqsadida metodik ta'minotning hissiy-ma'naviy rivojlanishdagi samaradorligini baholash. Bolalarning hissiy-ma'naviy rivojlanishini diagnostika qilish. Simulyatsion usullarni qo'llash natijasida o'zgarishlarni kuzatish va tahlil qilish. Tarbiyachilarning malaka va qobiliyatlarini qayta baholash. Metodik ta'minotni takomillashtirish uchun tavsiyalarni ishlab chiqish.

5. Innovatsion bosqich: Metodlarni takomillashtirish va tarqatish uchun Simulyatsion ta'lim metodlarini kengroq joriy etish va innovatsiyalarni kiritish. Yangi metodikalarni qo'llash va ularni boshqa ta'lim muassasalariga tatbiq etish. Innovatsion yondashuvlarni ommalashtirish uchun ilmiy maqolalar va seminarlar tashkil etish. Simulyatsion ta'limning metodik ta'minotini doimiy ravishda takomillashtirish borish.

Quyida bo'lajak tarbiyachilarda Simulyatsion ta'lim orqali bolalarni hissiy-ma'naviy tayyorlashning metodik ta'minotini takomillashtirish bosqichlarini **jadval shaklida** keltiriladi:

Bosqich	Maqsad	Faoliyatlar	Natija
1. Tahliliy bosqich	Muammoning holatini o'rganish	- Simulyatsion usullarning dolzarbligini tahlil qilish. - Tarbiyachilarning tayyorgarlik darajasini baholash. - So'rovnoma va suhbatlar o'tkazish.	Dastlabki muammolarni aniqlash, rivojlantirish uchun asos yaratish.
2. Loyihalash bosqichi	Metodik ta'minotni ishlab chiqish	- Simulyatsion ta'lim maqsadlari va vazifalarini belgilash. - Yangi metodlarni ishlab chiqish. - Ota-onalar va ta'lim muassasalari uchun tavsiyalar yaratish.	Metodik materiallar majmuasini shakllantirish.
3. Amalga oshirish bosqichi	Simulyatsion metodlarni joriy etish	- Treninglar va seminarlar o'tkazish. - Amaliy mashg'ulotlar tashkil qilish. - Simulyatsion usullarni bolalar bilan sinovdan o'tkazish.	Tarbiyachilar Simulyatsion metodlarni qo'llay olishadi.
4. Baholash bosqichi	Samadorlikni tahlil qilish	- Bolalar rivojlanishini diagnostika qilish. - O'zgarishlarni kuzatish va tahlil qilish. - Tarbiyachilarning malakasini qayta baholash.	Metodik ta'minotni takomillashtirish uchun tavsiyalar.

<p>5. Innovatsion bosqich</p>	<p>Metodlarni takomillashtirish va tarqatish</p>	<p>- Innovatsion metodlarni qo'llash va tarqatish. - Yangi yondashuvlarni ilmiy maqolalar orqali ommalashtirish.</p>	<p>Simulyatsion ta'limning metodik ta'minoti doimiy ravishda takomillashadi.</p>
--------------------------------------	--	--	--

Yuqorida tavsiflangan har bir bosqich hissiy-ma'naviy rivojlanishni qo'llab-quvvatlovchi va uni shakllantirishda yordam beruvchi metodik asoslarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Quyidagilar bunga asos bo'ladi:

1. Tahliliy bosqichda tarbiyachilarning tayyorgarlik darajasi va mavjud usullar o'rganiladi. Bu, hissiy-ma'naviy tarbiyada zaif nuqtalarni aniqlashga va ularni mustahkamlash yo'llarini izlashga yordam beradi.

2. Loyihalash bosqichi yangi simulatsion vaziyatlar va o'yinlar orqali bolalarning hissiy tajribalarini rivojlantirishga yordam beradigan metodikani shakllantirishni ta'minlaydi.

3. Amalga oshirish bosqichida tarbiyachilar simulatsion usullarni amaliyotda qo'llashni o'rganadilar. Bu bolalar bilan ishlashda hissiy-ma'naviy rivojlanishga yo'naltirilgan usullarni real vaziyatlarga moslashtirishga imkon beradi.

4. Baholash bosqichi yordamida tarbiyachilar tomonidan qo'llangan usullarning natijaviyligi aniqlanadi. Bu, hissiy-ma'naviy rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatayotgan usullarni ajratib olish va ularni kengroq qo'llash imkonini beradi.

5. Innovatsion bosqichda yangi usul va yondashuvlar ishlab chiqilib, keng jamoaga tavsiya etiladi. Bu simulatsion ta'limni yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Shuning uchun ushbu bosqichlar hissiy-ma'naviy tayyorlash metodikasini ilmiy asosda boyitish va tarbiyachilarni professional jihatdan tayyorlashda muhim rol o'ynaydi.

Zamonaviy ta'lim jarayonida tarbiyachilarning texnologik kompetensiyalarini oshirish o'quv jarayonining samaradorligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Tarbiyachilarning bu kompetensiyalari, ularning Simulyatsiya usullarini amaliyotda muvaffaqiyatli qo'llashi uchun zarur ko'nikmalar va mahoratini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun maxsus trening dasturi ishlab chiqilgan bo'lib, u tarbiyachilarning nazariy bilimlari va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Turg'unov S.T., L.A. Maqsudova, H.M. Tojiboyeva, G.M. Nazirova, M.A.Umaraliyeva Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish, sifat va samaradorligini oshirish texnologiyalari Toshkent. 2014. 122-bet

2. Djuraeva B.R., Tojiboeva H.M., Nazirova G.M. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning zamonaviy tendensiyalari Toshkent, -O'zPFITI. -2015. 112-bet.

3. Djuraeva B.R., Umarova X.A., Tojiboeva H.M., Nazirova G.M. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim jarayonining sifati va samaradorligini takomillashtirishning pedagogik tizimi monografiya. Toshkent, Real print. -2017. 160-bet.

4. Asqarova U.M., Xayitboev M., Nishonov M.S. Pedagogika. Darslik, Toshkent: Talqin-2008

5. Ustemirov K., Shametov N.R., Vasilev I.B. Professionalnaya pedagogika. - Almati: 2005, - 432

s.

